


12

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARINI ETOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	- Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	70810802	- Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik

Samarqand 2024

Fan /modul kodi QXHE1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS-Kreditlar 6	
Fan /modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek-rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining asosiy maqsadi chorva hayvonlarining etologiyasi, ularni mahsuldorlik ko'rstakichlari bilan uzviyligi, qoramolchilik, qo'ychilik, asalarichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, mo'ynachilikda hayvonlarni xulq-atvori asosida tanlash ta'siri va uning hosila organlarining tuzilishi, chorva hayvonlarini etologiyasi orqali ularning xulq-atvorini o'rganish, etologiya to'g'risida tushuncha, xususiy etologiya, umumiy etologiya haqida tushuncha amaliyotga tatbiq etishga mo'ljallangan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash asbob-uskunalar bilan ishlashni bilishi, chorva mollari (qoramol, qo'y, cho'chqa, parrandalar) xulq-atvorning tug'ma shakllari. Majburiy bo'lmagan xulq-atvor, shartli va shartsiz reflekslarni aniqlash hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha xulosa qilish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining hozirgi zamon yutuqlari bilan tanishtirish; chorva hayvonlarini etologiyasi orqali ularning xulq -atvorini o'rganish, etologiya to'g'risida tushuncha, xususiy etologiya, umumiy etologiya haqida tushuncha amaliyotga tatbiq etishga mo'ljallangan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash; hayvonlarning xulq - atvor genetikasi, xulq-atvorni zamonaviy takomillashgan usullarni aniqlash bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish, magistrnlarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish ko'rsatkichlarni bilish va ularni aniqlashga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakillantirish vazifalarini bajaradi.</p>				
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1-mavzu. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi faniga kirish					
Qishloq xo'jaligi hayvonlarining etologiyasi, uning mazmuni, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Respublikamiz olimlari tomonidan chorva hayvonlarining xatti-harakat temperamentlarini mahsuldorlikka ta'sirini					

o'rganish bosqichlari.

2-mavzu. Hayvonlarning texnologik xususiyatlar etologiyasi

Chorva mollari (qoramol, qo'y, cho'chqa, parrandalar xulq-atvorning tug'ma shakllari.

Instinktlar, instinktlarning turlari, hayotiy instinktlar, instinktlarning nasldan-naslga berilishi, organizmdagi xatti-harakat funksional tizimlarining shakllanishi.

3-mavzu. Hayvonlarning texnologik xususiyatlar etologiyasi

Chorva mollari (qoramol, qo'y, cho'chqa, parrandalar xulq-atvorning tug'ma shakllari.

Instinktlar, instinktlarning turlari, hayotiy instinktlar, instinktlarning nasldan-naslga berilishi, organizmdagi xatti-harakat funksional tizimlarining shakllanishi.

4-mavzu. Turlarning yaxlitligi va individual zoopsixologik xususiyatlari.

Majburiy bo'lmagan xulq-atvor. Shartli va shartsiz reflekslar. Qabul qilish. Taqlid qilish.

Chorva turlari kesimida (yoshiga bog'liq holda) turli fiziologik holatlarda noodatiy harakatlar.

5-mavzu. Klassik etologiya. Asosiy konsepsiyalar va uslublar

Klassik etologiya haqida tushuncha. Belgilangan harakatlar majmuasi. Belgili stimullar (imtiyozlar). BHM ning spesifik (o'ziga xos) energiyasi.

Klassik etologiya yo'nalishidagi ilmiy qarashlari. Etologiyaning rivojlanishidan oldingi ma'lumotlar. Klassik zoopsixologiya.

6-mavzu. Klassik etologiya. Asosiy konsepsiyalar va uslublar

Klassik etologiya haqida tushuncha. Belgilangan harakatlar majmuasi. Belgili stimullar (imtiyozlar). BHM ning spesifik (o'ziga xos) energiyasi.

Klassik etologiya yo'nalishidagi ilmiy qarashlari. Etologiyaning rivojlanishidan oldingi ma'lumotlar. Klassik zoopsixologiya.

7-mavzu. Fe'l-atvorning shakl va tizimlari

Fe'l-atvorning shakl va tizimlari haqida tushuncha. Fe'l-atvor shakllari. Oziqlanish fe'l-atvori. Gomeostatik va qulaylik fe'l-atvori. Passiv yoki faol himoyalaniş fe'l-atvori. O'rganish fe'l-atvori. O'yin fe'l-atvori. Taqlit qilish fe'l-atvori. Ekstrapolyatsiya fe'l-atvori. Favqulodda vaziyatlarda o'zini tutish fe'l-atvori. Kritik holatlarda o'zini tutish fe'l-atvori. Noodatiy (g'ayritabiiy) fe'l-atvor. Jinsiy fe'l-atvor. Ota-onalik fe'l-atvori (onalik va otalik).

8-mavzu. Fe'l-atvorning shakl va tizimlari

Fe'l-atvorning shakl va tizimlari haqida tushuncha. Fe'l-atvor shakllari. Oziqlanish fe'l-atvori. Gomeostatik va qulaylik fe'l-atvori. Passiv yoki faol

himoyalaniş fe'l-atvori. O'rganish fe'l-atvori. O'yin fe'l-atvori. Taqlit qilish fe'l-atvori. Ekstrapolyatsiya fe'l-atvori. Favqulodda vaziyatlarda o'zini tutish fe'l-atvori. Kritik holatlarda o'zini tutish fe'l-atvori. Noodatiy (g'ayritabiiy) fe'l-atvor. Jinsiy fe'l-atvor. Ota-onalik fe'l-atvori (onalik va otalik).

9-mavzu. Zoopsixologiyada kommunikatsiyani o'rganish usullari.

Jamoalarni tashkil etish. Axborot uzatish. Ovoz va artikulyatsiya I.P.Pavlovning oily nerv faoliyatining xillari to'g'risidagi ta'limoti uning shogirdlari tomonidan rivojlantirildi va oily nerv faoliyatining hozirgi zamon klassifikatsiya xillarini yaratish.

Bu klassifikatsiya kuchli, kuchsiz, muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan xillarga bo'linishi.

10-mavzu. Zoopsixologiyada kommunikatsiyani o'rganish usullari.

Jamoalarni tashkil etish. Axborot uzatish. Ovoz va artikulyatsiya I.P.Pavlovning oily nerv faoliyatining xillari to'g'risidagi ta'limoti uning shogirdlari tomonidan rivojlantirildi va oily nerv faoliyatining hozirgi zamon klassifikatsiya xillarini yaratish.

Bu klassifikatsiya kuchli, kuchsiz, muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan xillarga bo'linishi.

11-mavzu. Jinsiy ko'payishning jinssiz ko'payishga nisbatan afzalliklari.

Hozirgi sanoat texnologiyasida chorvachilikda stress omillar tez-tez bo'lib turadi.

Jinsiy ko'payishning jinssiz ko'payishga nisbatan afzalliklari.

Bularga har xil oliy nerv faoliyati xiliga ega bo'lgan hayvonlar har xil munosabatda bo'lishi mumkin.

12-mavzu. Jinsiy ko'payishning jinssiz ko'payishga nisbatan afzalliklari.

Hozirgi sanoat texnologiyasida chorvachilikda stress omillar tez-tez bo'lib turadi.

Jinsiy ko'payishning jinssiz ko'payishga nisbatan afzalliklari.

Bularga har xil oliy nerv faoliyati xiliga ega bo'lgan hayvonlar har xil munosabatda bo'lishi mumkin.

13-mavzu. Qoramollar etologiyasi.

Qoramollar etologiyasi to'g'risida tushuncha. Sigirlarning hayotiy jarayonlari Dam olish, Yotish, Yotish uchun joy, Uxlash.

Qoramollarning yaylovdagi fe'l-atvori. Sigirlarni bog'lab boqish bilan bog'liq bo'lgan fe'l-atvori. Yashash maydoning kattaligi va hayot tarzi. Bog'lab boqishga o'tkazish. Guruhlarning shakllanishi va guruhlarda tinchlikni o'rnatish uchun zarur bo'lgan vaqt. Sigirlar joy almashinish fe'l-atvoriga zotdorlikning ta'siri. Sigirlar fe'l-atvorining sut mahsuldorligi bilan bog'liqligi.

14-mavzu. Qo'ylar etologiyasi.

Qo'ylarda hayotiy jarayonlarning namoyon bo'lishi. Qo'ylarning etologik ko'rsatkichlari. Qo'ylar etogrammasi. Suruv instikti. Qorako'l qo'ylarining yaylov hayvonlari sifatidagi ahamiyatli. Qo'ylar fe'l-atvorining mahsuldorligi bilan bog'liqligi. Go'sht mahsuldorligi.

15-mavzu. Parrandalar etologiyasi.

Jo'jalarning ijtimoiy munosabatlari. Tovuqlarni tabiiy sharoitda parvarishlash vaqtida (Onasi bilan birga) ularning xatti-harakatlari bosqichlari Broyler jo'jalari etogrammasi. Broyler jo'jalarida sutka davomida oziqlanish va dam olish vaqtining taqsimlanishi.

16-mavzu. Otlar etologiyasi.

Otlar harakati. Otning og'irlik markazi. Muvozanat. Muvozanatning turlari. Tananing orqa tomonidagi balans. Tananing old qismidagi muvozanat. O'rta muvozanat. Yaylov sharoitida toylarning fe'l-atvori. Otlar etogrammasi.

18-mavzu. Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Xatti-harakatlar.

Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari, bosqichlari.

Chorva hayvonlarining xatti-harakatlar (turlari kesimida tahlil qilish va mahsuldorlikka bog'liqligi).

Har xil konstitutsiyaga ega chorva hayvonlarida xatti-harakatlarning farqlanishi.

19-mavzu. Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Xatti-harakatlar.

Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari, bosqichlari.

Chorva hayvonlarining xatti-harakatlar (turlari kesimida tahlil qilish va mahsuldorlikka bog'liqligi).

Har xil konstitutsiyaga ega chorva hayvonlarida xatti-harakatlarning farqlanishi.

20-mavzu. Instinkt va uning turlari.

Chorva hayvonlarining tug'ma instinktlari.

Uy hayvonlaridagi yo'qolib borayotgan yoki orttirib borayotgan tug'ma instinktlari. O'z-o'zini rivojlantirish instikti. Instinktlarning xususiyatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zoopsixologiyani tatbiq qilish usul va qoidalari.
2. Xulq -atvorni tashkil etuvchi xatti-harakatlarni o'rganish.
3. Kommunikatsiyani o'rganish usullari.

4. Umumiy podada saqlanadigan hayvonlarni xulq-atvor tiplarini o'rganish.
5. Reflekslar va lokomotatsiya.
6. Reflekslar va lokomotatsiya.
7. Hayvonlarni xulq-atvorini harakterlovchi faoliyati va uni ritmik o'zgarishini o'rganish.
8. Qoramollarning zoopsixologiyasi va etologik xususiyatlarini o'rganish.
9. Qoramollarning zoopsixologiyasi va etologik xususiyatlarini o'rganish.
10. Qo'ylarning zoopsixologiyasi va etologik xususiyatlarini o'rganish.
11. Otlarning zoopsixologiyasi va etologik xususiyatlarini o'rganish.
12. Cho'chqalarning zoopsixologiyasi va etologik xususiyatlarini o'rganish.
13. Yilqi va tuyalar xulq-atvorini o'rganish.
14. Yilqi va tuyalar xulq-atvorini o'rganish.
15. Quyonlarning etologik xususiyatlarini o'rganish.
16. Parrandalarning etologik xususiyatlarini o'rganish.
17. Qo'y va echkilarning mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
18. Yilqi va tuyalarni mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
19. Quyonlar mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
20. Parrandalar mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
21. Mo'ynali hayvonlar mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
22. Cho'chqalar mahsuldorligiga individual psixikasining ta'siri.
23. Chorva hayvonlarining mahsuldorligiga konstitutsiya tiplarining ta'siri.
24. Chorva hayvonlarning psixikasiga noantropogen omillarning ta'siri.
25. Chorva hayvonlarning psixikasiga antropogen omillarning tasiri.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Etologiyaning tarixiy jihatlar.
2. Tadqiqot usullarining maqsadi va talablari.
3. Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganish usullari.
4. Tavsiflovchi usullar.
5. Eksperimental usullar.
6. Xatti-harakatlar mexanizmlari.
7. Asabiy xulq-atvorni tartibga solish.
8. Hissiy jarayonlar va hislar.
9. Hayvonlarning his-tuyg'ularining ekologik holati.
10. Turli xil hayvonlar o'rtasidagi muloqot.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasini mudiri q.x.f.f.d.(PhD) J.N.Xujamov, q.x.f.d.(DSc) E.S.Shaptakov, q.x.f.f.d.(PhD) Z.B.Suyunovlar tomonidan 70810802-Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik magistr mutaxassislari uchun tayyorlangan "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining o'quv dasturiga


T A Q R I Z

Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlab borishda qishloq xo'jaligi hayvonlarini ko'paytirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada hayvonlar xulq-atvorini o'rganishning zamonaviy fani ta'limning turli sohalarida ishlayotgan ko'p sonli olimlarning birgalikdagi ishlarining natijasi bo'lib, ularning har biri xulq-atvoriga ta'limli savollar majmuiga javob berishga intilgan "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ushbu fanning dasturi chorvachilikda Kuzatish va tasvirlash hayvonning xulq-atvori tahlili shakllanadigan poydevorni tashkil qiladi. chorva hayvonlarini tanlash, saralash ishlarini to'g'ri tashkil qilish va shu yo'l bilan ularning mahsuldorlik bo'yicha Faqat o'rganilayotgan hayvonning xulq-atvori reperetuari haqida aniq tasavvurga ega bo'linsa, unda kutilmaganda birdaniga namoyon bo'ladigan xulq-atvor yuzaga chiqarish imkoniyatlarini beradi.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan fan dasturi Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida, yuqorida ko'rsatilgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan magistr'larga mo'ljallangan bo'lib, dastur: o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifasi, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati kabi bob va qismlarni o'z ichiga olgan hamda masalalar hozirgi zamon talabi darajasida yoritilgan. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi fanining masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Umuman olganda taqriz qilinayotgan fan dasturi o'zining mazmun - mohiyati, yozilish tartibi, shakli va hajmi jihatidan qo'yilgan talabga to'liq javob beradi. Shuni hisobga olgan holda ushbu fan dasturini tasdiqlash uchun tavsiya qilish mumkin deb hisoblayman.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
"Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyasi"



Sh.K.Amirov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasining mudiri q.x.f.f.d.(PhD) J.N.Xujamov, q.x.f.d.(DSc) E.S.Shaptakov, q.x.f.f.d.(PhD) Z.B.Suyunovlar tomonidan 70810802-Qishloq xo'jaligi hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik magistr mutaxassislari uchun tayyorlangan "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining o'quv dasturiga


T A Q R I Z

Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlab borishda qishloq xo'jaligi hayvonlarini ko'paytirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada hayvonlar xulq-atvorini o'rganishning zamonaviy fani ta'limning turli sohalarida ishlayotgan ko'p sonli olimlarning birgalikdagi ishlarining natijasi bo'lib, ularning har biri xulq-atvoriga ta'limli savollar majmuiga javob berishga intilgan "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi" fanining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ushbu fanning dasturi chorvachilikda Kuzatish va tasvirlash hayvonning xulq-atvori tahlili shakllanadigan poydevorni tashkil qiladi. chorva hayvonlarini tanlash, saralash ishlarini to'g'ri tashkil qilish va shu yo'l bilan ularning mahsuldorlik bo'yicha Faqat o'rganilayotgan hayvonning xulq-atvori reperetuari haqida aniq tasavvurga ega bo'linsa, unda kutilmaganda birdaniga namoyon bo'ladigan xulq-atvor yuzaga chiqarish imkoniyatlarini beradi.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan fan dasturi Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida, yuqorida ko'rsatilgan mutaxassistiklar bo'yicha ta'lim olayotgan magistr'larga mo'ljallangan bo'lib, dastur: o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanning maqsadi va vazifasi, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati kabi bob va qismlarni o'z ichiga olgan hamda masalalar hozirgi zamon talabi darajasida yoritilgan. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini etologiyasi fanining masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Umuman olganda taqriz qilinayotgan fan dasturi o'zining mazmun - mohiyati, yozilish tartibi, shakli va hajmi jihatidan qo'yilgan talabga to'liq javob beradi. Shuni hisobga olgan holda ushbu fan dasturini tasdiqlash uchun tavsiya qilish mumkin deb hisoblayman.

Oziqlantirish va saqlash bo'limi
mudiri q.x.f.n, dotsent



B.S.Yaxyayev

11. Xatti-harakatlarning evolyutsiyasi.
 12. Uzoq muddatli imprintingning jihatlar.
 13. Instinktlarni o'rganish usullari.
 14. Kundalik ritmlar.
 15. Reproduktiv mavsumiylik.
 16. Parrandalar xulq-atvorini tartibga solish. Migratsiya.
 17. Etologiyani shakllantirishning asosiy tarixiy bosqichlari.
 18. Hayvonlarning xulq-atvorini o'rganishning asosiy usullarini tavsiflang.
 19. Zoopsixologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirish tarixi.
 20. Zoopsixologiya va etologiyada 19 asr olimlarining roli (Kuvier, Darvin, Sechenov, boshq.)
 21. Klassik etologiyaning asoschisi Konrad Lorenzning roli.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yalngi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy amaliyot (Stajirovka):

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim

Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi

3.

VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- Chorva hayvonlarining etalogiyasi, ularni mahsuldorlik ko'rstakichlari bilan uzviyligi, qoramolchilik, qo'ychilik, asalarichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, mo'ynachilikda hayvonlarni xulq-atvori asosida tanlash ta'siri va uning hosila organlarining tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)

	<ul style="list-style-type: none"> chorva hayvonlarini etologiyasi orqali ularning xulq-atvorini o'rganish, etologiya to'g'risida tushuncha, xususiy etologiya, umumiy etologiya haqida tushuncha amaliyotga tatbiq etishga mo'ljallangan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash asbob-uskunalar bilan ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) magistr, chorva mollari (qoramol, qo'y, cho'chqa, parrandalar) xulq-atvorning tug'ma shakllari. Majburiy bo'lmagan xulq-atvor. Shartli va shartsiz reflekslarni aniqlash hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha xulosa qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Xatamov A.X., Shaptakov E.S. Qishloq xo'jalik hayvonlarining etologiyasi. O'quv qo'llanma, "Usmon Nosir media" 2023.</p> <p>2 Федотова Н.В., Беляев В.А., Квачко А.Н. Зоопсихология. Учебное пособие. Ставропол АГПУС, 2015.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>8. SAPP JAN «Genesis: The Evolution of Biology». Oxford University Press, USA. 2018, USA.</p>

	<p>Axborot manbaalari:</p> <p>1. www.ziyonet.uz.</p> <p>2. www.slib.uz</p> <p>3. www.lex.uz</p> <p>4. www.Zivonet.uz</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 -avgustdagi "12-sonli bayoni bilan maqullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>J.N.Xujamov – SamDVMChBU, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrası mudiri, dotsent, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori (PhD).</p> <p>E.S. Shaptakov – SamDVMChBU, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrası professori. qishloq xo'jalik fanlari doktori (DSc).</p> <p>Z.B.Suyunova - SamDVMChBU, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrası assistenti, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori (PhD).</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.K.Amirov - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyasi" kafedrası professori, q.x.f.n.</p> <p>B.S.Yaxyayev – Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti, "Oziqlantirish va saqlash" bo'lim mudiri q.x.f.n., dotsent</p>